

O'ZBEK TILIDA ILK ILMIY USLUBDA YOZILGAN ASAR

Berdak Yusufov,*O'zbek tili, adabiyoti va folklori instituti f.f.n., professor*

Annotatsiya. Mazkur maqolada o'zbek tilida ilmiy uslubning shakllanishi va taraqqiyoti masalalari tahlil qilinadi. Xususan, eski o'zbek adabiy tilida yaratilgan ilk ilmiy asar sifatida "Funun ul-balog'a" hamda Alisher Navoiyning "Mezon ul-avzon" asarining ilmiy-uslubiy xususiyatlari yoritiladi. Shuningdek, ilmiy terminologiyaning shakllanishi va arab-fors tilining ta'siri asoslab beriladi.

Kalit so'zlar: ilmiy uslub, termin, matn, so'z, leksika, yuksak uslub.

Аннотация. В данной статье анализируются вопросы формирования и развития научного стиля в узбекском языке. Особое внимание уделяется произведению «Фунун ул-балог» как первому научному труду на староузбекском языке, а также научно-стилистическим особенностям труда Алишера Навои «Мезон ул-авзон». Рассматривается формирование научной терминологии и влияние арабского и персидского языков.

Ключевые слова: научный стил, термин, текст, слово, лексика, высокий стил.

Abstract. This article examines the formation and development of the scientific style in the Uzbek language. Special attention is given to "Funun ul-balagha" as the first scientific work in Old Uzbek, as well as the scientific and stylistic features of Alisher Navoi's "Mezon ul-avzon." The study also explores the development of scientific terminology and the influence of Arabic and Persian languages.

Keywords: scientific method, terminology, text, word, lexicon.

Kirish. O'zbek tilida umuman turkiy tillarda ilmiy uslubning paydo bo'lishi haqida bir-biriga zid turli qarashlar mavjud. Sho'ro davrida ko'pchilik tilshunoslar mazkur uslub turkiy tillarda Oktyabr inqilobidan oldin yo'qligi, u faqat Oktyabrdan so'ng paydo bo'lganligini iddao qilishadi. Holbuki, VIII–X asr turkiy yozma yodgorliklar tilida ilmiy uslubning mavjudligini E.R.Tyenishev o'z maqolasida ko'rsatgan.

Shuni ham qayd etish lozimki, Sho'rolar davrida Markazda chop etilgan ba'zi tilshunoslikka oid asarlarda badiiy, ilmiy, publisistik rasmiy asarlar uslublari haqida fikr yuritilib, qadimdan yozuvga ega tillar – tatar, o'zbek, ozarbayjon, uyg'ur tillarida "bu uslublar oldin ham qisman mavjud edi", – deb boshqa uslublar qatori ilmiy uslub ham qadimda bor bo'lganligi tan olingan. Shuningdek, barcha uslublar mavjud bo'lganligi haqida E.G.Tumanyan shunday yozadi: "Ma'lumki, SSSRdagi bir qator yozuvga ega bo'lgan masalan, arman, gruzin, litva, eston va boshqa tillar rivojlangan uslublar tizimiga ega edilar".

Adabiyotlar tahlili. O'tgan asr oxirlarida "Funun ul-balog'a" asarining topilishi madaniyatimiz tarixida katta voqea bo'ldi. Shayx Ahmad Taroziyning ushbu balog'at ilmiga oid asari 1436–1437-yillarda eski o'zbek adabiy tilida yozilgan. A.Hayitmetov mazkur asar haqida: "Funun ul-balog'a" o'zbek tilidagi adabiyotning nazariy masalalari bo'yicha ilk mukammal qo'llanma bo'lishi bilan birga she'riy tazkira xarakteridagi bir asar hamdir", – deydi.

Asar muallifi ba'zan biror istilohga izoh bermoqchi bo'lsa, avval uning lug'aviy ma'nosini keltiradi, so'ng esa istiloh sifatidagi ma'nosi beriladi. Masalan, "Tarse" lug'atda

oltun, kumushga javohirni o‘rnatmoqni ayturlar. Va istiloh birla tarse’ ul bo‘lurkim, har kalimakim, avvalg‘i misrada kelur, so‘ngg‘i misraning har kalimasin ul kalimalarning muqobalasinda kelturub, vazn birla muvofiq va lafz birla muttafiq va oxir harf birla muttahid qilurlar”.

Shayx Ahmad bu asarni yozishdan oldin u bu mavzuda arab va fors tillarida yozilgan asarlar bilan tanishib chiqadi. O‘sha davrda hali o‘zbek tilida bunday asar yozilmaganligi tufayli, terminlar izohida forscha, arabcha so‘zlar va izofalar tez-tez uchrab turadi: *misoli digar* kabi. Shuningdek, biron termin izohlangandan keyin keltirilgan o‘zbekcha misollardan tashqari, ba‘zan fors adabiyoti namoyandalari asarlaridan forscha va Qur‘ondan arabcha o‘rnaklar beriladi.

“Funun ul-balog‘a”ni tadqiq etgan J. Yo‘ldoshbekov bu yozma yodgorlik haqida “Mazkur risola, hozircha, turkiy tilda yaratilgan birinchi ilmiy asar hisoblanadi. Chunki ilmning biror tarmog‘i bo‘yicha turkiy tilda yaratilgan boshqa asar bugungacha fanga ma‘lum emas”, – deydi. Bu fikrga qo‘shilish qiyin, albatta. Chunki turkiy tilda, aniqrog‘i qadimgi uyg‘ur tilida tibbiyotga va astronomiyaga oid asarlar yozilgan. Shuning uchun “Funun ul-balog‘a”ni turkiy tilda emas, balki o‘zbek tilida yozilgan ilk ilmiy asar deyish to‘g‘ri bo‘ladi. Mazkur asarni adabiyotshunoslik nuqtai nazaridan tadqiq etgan A. Hayitmetovning “u o‘zbek tilidagi birinchi ilmiy asar”, degan fikri juda o‘rinlidir. Yuqorida aytilganlardan shu narsa ma‘lum bo‘ladiki, turkiy tillarda, jumladan o‘zbek tilida uslublar, jumladan, ilmiy uslub Oktyabr inqilobidan keyin paydo bo‘lgan emas. Uning paydo bo‘lishi uzoq o‘tmishga borib taqaladi. Ye.I. Ubryatova bu haqida shunday yozadi: “Menimcha, “uslub” termini juda tor ma‘noda ishlatiladi. Albatta yozma adabiy tilda tilning turli uslublari ancha rivojlangan holda namoyon bo‘ladi, lekin baribir bu bilan tilga tegishli uning hamma sohasida uslubning barcha rang-barangliklari tugamaydi. Bir til og‘zakimi yoki yozmami, yaqinda yozuvga ega bo‘lganmi yoki qadimdan yozuvga egami, “uslub” tushunchasi har qanday tilga xos. Aftidan, bu til taraqqiyotining juda qadimgi davriga xosdir”.

Tadqiqot metodologiyasi. Mazkur tadqiqotda tarixiy-qiyosiy va tavsifiy tahlil usullaridan foydalanildi. Asosiy manbalar sifatida yozma yodgorliklar, xususan, “Funun ul-balog‘a” va “Mezon ul-avzon” asarlari lingvistik jihatdan tahlil qilindi. Shuningdek, ilmiy terminologiyaning shakllanishi va uslubiy xususiyatlari kontekstual yondashuv asosida o‘rganildi.

Tahlillar va natijalar. Navoiyning “Mezon ul-avzon” asarining ilmiy uslubi haqida fikr yuritadigan bo‘lsak, tilning tarixiy taraqqiyotiga bog‘liq holda uslub tushunchasi o‘zgarib boradi. Alisher Navoiy uslub deganda turni tushunadi. U nazmni nasrdan ustun qo‘yadi.

*Bo‘yla so‘z fannida chiqarg‘on ism,
Qildi uslubini aning iki qism.
Har kishi qilmoq istasa ma‘lum,*

Biri mansur erur, biri manzum.

Nasru nazmi angaki mudrakdur,

Nazmining poyasi biyikrakdur (Sab' ai sayyor, X-35).

O'rta asrlarda aruz vaznining qo'llana boshlashi turkiy xalqlar adabiyoti, jumladan o'zbek adabiyotining rivojlanishi natijasida mazkur vazn haqida o'zbek tilida asar yozish ehtiyojini keltirib chiqardi. Shoir "Mezon ul-avzon"ni yozish sababini risolaning oxirida shunday izohlaydi: "G'araz bu maqolotdin va maqsud bu muqaddimotdin bu erdikim, chun turk alfozi bilakim nazm voqe' bo'lubdur, anga zobitaye va qonune yo'q erkandur va ul fan rivoji uchun kishi aruz fannida kitobe yo risolaye bitmaydur". Shundan keyin davom etib, Husayn Boyqaro aruz vaznida devon tuzgani tufayli she'rning martabasi oshgani, arab va fors shoipu olimlari aruz ilmi haqida kitoblar yozgani, ammo turkiy tilda bironta bunday kitob yozilmaganligi, shuning uchun bu asarni yozganligini quyidagicha bayon etadi: "Bu xujasta zamondakim, zamon podshohi devon tartib berdilar, muborak xotirlarin she'r vaznig'a va bayt taqte'ig'a mashg'ul qildilar, bu jihatdan turkiy she'rning poyasi porsiy she'ridin o'tti va baytning martabasi Bayt ul-haramg'a yetti. Har oyinakim, muloyimta'bliq ozodalar, balki qobili fahmu zehnlilik shahzodalar bu sharif ilmg'a ishtig'ol ko'rguzadurlar va buhur va avzoni va taqte'i va zihofoti va davoyiri ilmidinki Arab fusahosi va Ajam bulag'ovu shuarosi ul ilmda kitoblar tasnif qilibdurlarki onsiz bu fang'a vuqufi va shuuri bo'la olmas, bu alfoz nazmida yo'q erdi va Sulton-us-salotinning muborak xotirlari munga multafit, andoqki kitobning ibtidosida mazkur bo'ldi, bu ta'lifga bois va tasnifga sabab bo'ldi, bu sababdin bu ilm zobitasig'a qalam suruldi".

Navoiy "Majolis un-nafois" asarida shoir va olim Darvesh Mansur haqida yozganda "faqir aruzni Darvesh qoshida o'qubmyen" deb, o'zining aruz ilmini undan o'rganganligini ta'kidlaydi. Navoiy "aruz fanni sharif fandur" deb, aruzni ulug'laydi, bu fanning asoschisi Xalil ibn Ahmad ekanligini yozadi. Ma'lumki, aruz murakkab va o'ta chigal fandir. Shuning uchun u o'zidan oldin o'tgan olimlarning aruz ilmi haqidagi arab va fors tillarida yozilgan Ibn Xojibning (XIII asr) "Ilm ul-aruz", Rashididdin Vatvotning (XII asr) "Hadoyiq us-sehr", Xoja Nasiriddin Tusiyning (XIII asr) "Me'yori ul-ash'or" kabi asarlarini sinchiklab o'rgangan. Lekin Navoiy XV asr birinchi yarmida o'zbek tilida yozilgan va katta bir qismi aruzga bag'ishlangan "Funun ul-balog'a" haqida hech bir ma'lumot bermaydi. Aftidan, u mazkur asar borligini bilmagan bo'lsa kerak. Qizig'i shundaki, Bobur aruzga bag'ishlangan "Muxtasar" kitobida mazkur asarni esga oladi, Ahmad Taroziyning she'rlaridan misollar keltiradi.

Shuni ta'kidlash lozimki, Xurosondan boshqa joylarda yozilgan Xorazmiyning "Muhabbatnoma" (Xorazm, 1353), Sayfi Saroyining "Guliston bit-turkiy" (Misr, 1390–1391), Hofiz Xorazmiyning "Devon"i kabi asarlar ham Navoiy asarlarida tilga olinmaydi. Navoiyning "Mezon ul-avzon" asarining tanqidiy nashrini amalga oshirgan Kyemal Eraslan "aruz haqida ilk turkiy risola yozgan" kishi Navoiy ekanligini ta'kidlaydi. Ko'rinib turibdiki, K. Eraslan ham "Funun ul-balog'a" asaridan bexabar bo'lgan.

Navoiyning “Mezon ul-avzon”da muqaddima, aruz terminlarining lug‘aviy ma’nosi, sakkizta solim taf’ila, ushbu taf’ilalardan hosil bo‘lgan zihof va farqlar, bahrlar joylashgan doiralar, she’r taqte’i, bahr vaznlari o‘rin olgan. Shuningdek, Navoiy aruzda yozilgan tuyuq, qo‘shuq, chinga, muhabbatnoma, turkiy kabi she’r turlari haqida atroflicha to‘xtaladi. Asar oxirida aruzday muhim va sharaflil fan haqida turkiy tilda bironta ham asar yo‘qligi uchun mazkur risolani yozganligini ta’kidlaydi.

Har bir ilmiy soha o‘zining yuzlab, minglab terminlariga ega bo‘lgan terminologik tuzilishiga ega. Navoiyning “Mezon ul-avzon”i ilmiy uslubda yozilgan asardir. Mazkur asarning uslubiga xos xususiyati unda juda ko‘p maxsus terminlarning mavjudligidir. Ushbu terminlar aruz nazariyasiga oid murakkab tushunchalarni ifodalash uchun xizmat qilgan. Kelib chiqishi jihatdan asosiy ko‘pchiligi arab tiliga xos bo‘lgan mazkur atamalar quyidagilardir: alif (ME-30), avtod (ME-14), avzon (ME-14), axrab (XVI-48), anosir (ME-11), arazvoriy (ME-60), aruz (ME-33), aruziy (ME-15), afo‘il (ME-30), asl (ME-15), aslam (XVI-51), asram (ME-53), atf (XVI-60), atf vovi (ME-31), axtam (ME-16), arkon (ME-15), aslam (ME-20), asram (ME-20), ashtar (XVI-65), avzon (ME-13), azall (ME-16), batar (ME-16), bahr (XVI-52), bahri basit (ME-57), bahri jadid (ME-51), bahri xafif (ME-51), bahri xazaj (ME-33), bahri komil (ME-57), bahri qarib (ME-51), bahri madid (ME-57), bahri muqtadab (ME-48), bahri muzore’ (ME-46), bahri mujtass (ME-49), bahri munsareh (ME-44), bahri mushokil (ME-52), bahri mutadorik (ME-54), bahri mutaqorib (ME-53), bahri rajaz (ME-41), bahri ramal (ME-43), bahri sare’ (ME-50), bahri tavil (ME-57), bahri vofir (ME-57), batar (ME-15), bayt (XVI-59), bino (XVI-52), bihor (XVI-52), buhur (ME-12), jahf (XVI-49), jabb (ME-16), jad’ (ME-19), juzv (XVI-48), jadid (ME-53), chinga (XVI-92), doira (XVI-84), doirai muxtalifa (ME-23), doirai mu’talifa (ME-22), doirai mujtami’a (ME-26), doirai muxtalita (XVI-58), doirai mushtabiha (XVI-59), doirai muttafiqa (ME-24), doirai muntazia (XVI-55), darb (ME-33), dapur baho (ME-91), dubaytiy (ME-36), abtar (ME-20), ajabb (ME-16), ajzo (ME-24), advor (ME-60), afo‘il (XVI-59), fosila (ME-13), fosilai kubro (ME-14), fosilai sug‘ro (ME-24), fan (XVI-45), far’ (XVI-48), fatha (ME-30), furu’ (XVI-48), xabl (ME-18), xabn (ME-16), harakat (ME-32), hazaji axram (ME-37), xarb (ME-15), xarm (ME-15), hashv (ME-33), hazf (ME-19), hazz (ME-18), hamza (ME-30), hatm (ME-16), huruf (ME-30), xumosiy (ME-20), xumosiyot (ME-24), ibtido‘ (ME-33), ishbo‘ (ME-30), iskon (ME-17), isqot (ME-17), izola (ME-18), qarib (ME-26), qasr (ME-19), qat’ (ME-17), kaff (ME-16), qabz (ME-15), kasir ul-vuqu’ (XVI-47), kasra (ME-30), kashf (ME-19), qushuq (ME-58), maxbul (ME-19), maxbuli muzol (ME-18), maxbun (ME-18), maxbuni mahzuf (ME-17), maxbuni maqsur (ME-17), maxbuni matviyi makshuf (ME-19), maxbuni makshuf (ME-19), maxbuni mavquf (ME-19), maxbuni musabbag‘ (ME-17), maxbuni muraffal (ME-18), maxbuni muzol (ME-18), mahzuf (ME-17), matviyi makshuf (ME-19), matviyi mavquf (ME-19), matviyi muraffal (ME-18), matviyi muzol (ME-18), majhufi musabbag‘ (ME-17), majdu’ (ME-19), makfuf (ME-17), makshuf (ME-19), manhur (ME-19), marfu’ (ME-

18), mavquf (ME-19), mavzun (ME-15), misra' (XVI-56), muxalla' (ME-50), majhufi musabbag' (ME-17), maqtui musabbag' (ME-17), maxbuni musabbag' (ME-17), muraffal (ME-18), musamman (ME-26), mustahdas mushas (ME-17), mushokil (ME-26), mushokili makfuf (ME-25), mushabbad (ME-30), mushaddas (ME-30), mutaharrik (ME-14), muzol (ME-18), nahr (ME-19), nomavzun (ME-13), o'zan (ME-60), o'zmaq (ME-60), rab' (ME-17), raf' (ME-19), rakz ul-xayl (XVI-87), ramal (ME-20), ruboiy (XVI-66), sadr (ME-33), sokin (ME-14), solim (ME-33), savt un-noqus (XVI-87), sabab (ME-13), sababi xafif (ME-13), sababi saql (ME-14), salm I (ME-20), salm II (ME-19), sarm (ME-19), suboiy (ME-20), suboiyyot (XVI-52), shatar (ME-16), shakl (ME-16), taxliy (XVI-49), taqte' (ME-30), tavil (ME-20), tayy (ME-17), tarona (ME-36), tarfil (ME-18), tasbig' (ME-17), tafo'il (ME-115), tash'is (ME-17), turkiy (XVI-94), tuyug' (XVI-91), arg'ushtak (ME-58), uslub (ME-58), usul (XVI-88), vaqf (ME-19), vatad (XVI-49), vatadi majmo' (XVI-50), vatadi mafruq (ME-15), vazn (ME-12), zamma (ME-30), zalal (ME-16), zihof (ME-15), zihofot (ME-16).

Ajam shuarosining mutaaxxirlaridin ba'zi maqbuzi aslam binosin o'n olti ruknga qo'yub nazm aytibdurlar. *Mezonul-avzon*, XVI-86; Yana biri ulki, avvalqi juzvi «maf'ulu» bo'lg'ayki, hazajning bir juzvini «xarb» qilibdurlar va ani «axrab» derlar. *Mezonul-avzon*, XVI-67; Va bu bahri bir doirag'a qo'yubdurlar va ul doirani «Mu'talifa» debdurlar. *Mezonul-avzon*, XVI-53; Ul jumladin biri, «Alif» bila «ho» orasida munosabat va mushorakat beribdurlarki, bir lafzni ham oxiri alif lafz bila qofiya qilsa bo'lur. *Mezonul-avzon*, XVI-19; Komil hamd va vofir shukr ul soni'g'akim inson xilqati baytining nazmin anosir to'rt rukni bila tuzdi va bu bayt arkonin nazm ahlining solim tab' va mustaqim zehni ikki misrai bila manzum ko'rguzdi. *Mezonul-avzon*, XVI-43; Va bu besh aslning har biriga necha far'durkim tag'ayyurlar sababidinki, ani aruziylar «zihof» derlar, hosil bo'lur. *Mezonul-avzon*, XVI-48; Uchunchi doiraning ikkinchi bahri jadiddur va ul mustahdas bahrdurkim, oni g'arib ham debdurlar. *Mezonul-avzon*, XVI-82; «Qaf» – mafo'iylun «nun»uning isqotidur, to ma-fo'iylu qolg'ay. *Mezonul-avzon*, XVI-82; Yana «qo'shiq»durkim, arg'ushtak usulida shoyi'dur va ba'zi advor kutubida ul usul zikr bo'lubdur va ul surud a'robining teva surar hudilari vazni bila madidi musammani solimda voqe' bo'lur. *Mezonul-avzon*, XVI-92; Hazaji musaddasi axrami ashtari solimi aruz va zarb. *Mezonul-avzon*, XVI-66; «Qasr» – fo'ilotunda fo'ilot bo'lur va fo'ilon aning o'rnig'a qo'yarlar va ba'zi hamul «to»g'a tag'yir bermay mazkur qilurlar. *Mezonul-avzon*, XVI-49; «Qat'» – fo'ilotunda so'ngg'i sabab isqotidur va vatad sokinining ham isqoti va moqabli iskoni, bas fo'il qolg'ay va fa'lun aning o'rnig'a qo'yarlar, ammo ba'zi ani salm debdurlar. *Mezonul-avzon*, XVI-49; «Tash'is» – fo'ilotun vatadining ikki mutaharrikidin birining isqotidur, to fo'otun qolg'ay, yo folotun, har taqdir bila maf'ulun aning o'rnig'a qo'yarlar. *Mezonul-avzon*, XVI-49; «Jahf» – fo'ilotunni xabn qilmoqdur va fosilani isqot qilmoq, tun qolg'ay, fa' aning o'rnig'a qo'yarlar. *Mezonul-avzon*, XVI-49; «Tasbig'» – oxir juzvning sababi xafifig'a bir harf orturmoqdurkim, fo'ilotun fo'iloton bo'lg'ay, fo'iliyon aning

o'rnig'a qo'yarlar. *Mezonul-avzon, XVI-49*; «Rab'» – fo'ilotunda qat' va habn ijtimoidurkim, faul qolg'ay. *Mezonul-avzon, XVI-49*; Bas sobit bo'ldikim, aruz fani sharif fandur. Va bukim, bu ilmni nechun «aruz» dedilar, muxtalif aqvol bor. *Mezonul-avzon, XVI-45*; Ul jumladin, biri bila iktifo qililur. Va ul budurkim, Xalil ibni Ahmad rahmatullohki, bu fanning voziidur, chun arab ermish va aning yaqinida bir vodiy ermishki, ani «Aruz» derlar ermish va ul vodiya a'rob uylarin tikib, jilva berib, bahog'a kiyururlar ermish. *Mezonul-avzon, XVI-45-46*; «Xabn» – maf'ulotuda ma'ulotu bo'lur va mafo'ilu aning o'rnig'a qo'yarlar. *Mezonul-avzon, XVI-50*; «Tay» – maf'ulotuda maf'ilotu bo'lur, foilotu aning o'rnig'a qo'yarlar. *Mezonul-avzon, XVI-50*; «Xabl» – maf'ulotuda «xabn» va «tay» ijtimoidur, ma'ilotu bo'lur, failotu aning o'rnig'a qo'yarlar. *Mezonul-avzon, XVI-50*; «Vaqf» – maf'ulotu «to»sining iskonidur, maf'ulon aning o'rnig'a qo'yarlar. *Mezonul-avzon, XVI-50*; «Kashf» – maf'ulotu «to»sining isqotidur, maf'ulun aning o'rnig'a qo'yarlar. *Mezonul-avzon, XVI-50*; «Salm» – maf'ulotu vatadining isqotidur – maf'u qolur, fa'lun aning o'rnig'a qo'yarlar. *Mezonul-avzon, XVI-50*; «Jad'» – maf'ulotuning, ikkalasi sababining isqoti va «to»sining isqotidur – lot qolur, fo' aning o'rnig'a qo'yarlar. *Mezonul-avzon, XVI-50*; «Nahr» – maf'ulotuning ikkala sababi va «to»sining isqotidur – lo qolur, fa' aning o'rniga qo'yarlar. *Mezonul-avzon, XVI-50*; «Raf'» – maf'ulotuning burunqi sababining isqotidur, ulotu qolur, maf'ulu aning o'rnig'a qo'yarlar. *Mezonul-avzon, XVI-50*; Chun mu muqaddimot bayong'a kirdi, ammo bilmak kerakkim, bu sanoat arbobi avvalg'i misra'ning burung'i juzvin «sadr» derlar. *Mezonul-avzon, XVI-63*; So'ngg'i juzvin «aruz» derlar va so'ngg'i misraning burunqi juzvin «ibtido» derlar va so'ngg'i juzvin «zarb». *Mezonul-avzon, XVI-63*; Va ulcha «sadr» va «aruz» va «ibtido» va «zarb» orasidadur, ani «hashv» derlar va har baytki, aning taqti'ida zihofe voqi' bo'lmaydur, oni «solim» derlar. *Mezonul-avzon, XVI-63*; Munsarihnin musammani solimidurki, doirag'a doxil emas va Darvesh Mansurning «Aruz»ida musbatdur. *Mezonul-avzon, XVI-75*; Uchunchi doira besh bahrdur: sari' va jadid va qariyb va xafif va mushokil, ammo hech qaysi solim emasturlar. *Mezonul-avzon, XVI-82*; Uchunchi doiraning uchunchi bahri qariybdur va bu ham mustahdas bahrdur va bu bahr ajam shuarosi she'rida oz voqe'dur. *Mezonul-avzon, XVI-83*; Uchunchi doiraning to'rtunchi bahri xafifdur va bu bahrning matbu' avzonida ajam shuarosi masnaviylar bitibdurlar. *Mezonul-avzon, XVI-83*; Uchunchi doiraning beshinchi bahri mushokildur va bu ham mustahdas bahrdur. Pahlaviy she'rni ko'prak bu bahrdan aytibdurlar. *Mezonul-avzon, XVI-84*; Ajam shuarosining mutaaxxirlaridin ba'zi maqbuzi aslam binosin o'n olti ruknga qo'yub nazm aytibdurlar. *Mezonul-avzon, XVI-86*; To'rtunchi doiraning ikkinchi bahrikim, mutadorik bahridur va ani «rakzul-xayl» va «savtun-noqus» ham derlar. *Mezonul-avzon, XVI-87*; Beshinchi doirakim, andin to'qquz buhur usuli mustaxraj bo'lurkim, alar munsarih, xafif, muzori', muqtazab, mujtass, mushokil, sari', jadid, qariybdurlar va «doirai mujtamia»g'a mavsum bo'lubdur. Avvalg'i bahr chun «munsarih» erdi. *Mezonul-avzon, XVI-88*; Yana turk ulusi, bataxis chig'atoy xalqi aro shoyi'

avzondurkim, alar surudlarin ul vazn bila yasab, majolisda ayturlar. *Mezonul-avzon*, XVI-91; Birisi «tuyug»durkim, ikki baytqa muqarrardur va sa'y qilurlarkim, tajnis aytilg'ay va ul vazn ramali musaddasi maqsurdur. *Mezonul-avzon*, XVI-91; Yana «qo'shuq»durkim, arg'ushtak usulida shoyi'dur va ba'zi advor kutubida ul usul zikr bo'lubdur va ul surud a'robining teva surar hudilari vazni bila madidi musammani solimda voqe' bo'lur. *Mezonul-avzon*, XVI-92; Yana Iroq tarokimasida surudedur shoyi'kim, ani «aruzvoriy» derlar va aning bayti ko'prak hazaji musammani solimdadur. *Mezonul-avzon*, XVI-93; Yana surudedurkim, ani «turkiy» debdurlar, bu lafz anga alam bo'lubtur va ul g'oyatdin tashqari dilpisand va ruhafzo va nihoyatdin mutajoviz aysh ahlig'a sudmand va majlisoro suruddur, andoqki, salotin ani yaxshi aytur elni tarbiyatlar qilibdurlar, turkigo'y laqabi bila mashhurdur va ul dog'i ramali musammani maqsur vaznida voqi'dur. *Mezonul-avzon*, XVI-94. Ko'rinib turibdiki, keltirilgan aruz nazariyasiga xos terminlar, yuqorida aytilganiday, asosan arab tiliga oiddir. Umuman, barcha sohaga oid Navoiy qo'llagan terminlarning asosiy qismi arabcha va forschadir. Shuning uchun ba'zi olimlarning "Alisher Navoiy ishlatgan atamalarning ko'pchiligi kelib chiqishi jihatdan o'zbekchadir", – deyishlari haqiqatga to'g'ri kelmaydi. Shoir asarlarida xorijiy so'zlarning ko'plab uchrashining sababi Navoiy barcha asarlarini, jumladan, "Mezon ul-avzon"ni ham yuksak uslubda yozganligidadir. O'sha davrda yuksak uslub arabcha, forsha so'z va terminlarni ko'p qo'llashni taqozo etar edi. Umuman, Navoiy davrigacha va uning davrida ham ilmiy asarlar asosan arab tilida yozilgan. Ana shu an'ana ta'sirida turkiycha ilk ilmiy asarlarda arabcha terminlar donor tildan tayyor holda olingan. Ushbu maxsus terminlar matnga uslubiy bo'yoq beradi. Ammo ma'lum bo'lsinkim, aruz fannida nazm avzoni usulining binosin uch ruknga qo'yupturlarkim, alarni "sabab" va "vatad" va "fosila" debdurlar (ME-13); Va Arab va Ajam shuarosining jam'i ash'ori murakkab bu arkon ijtimoidindur va aruz ahli ani "afo'ilu tafo'il" derlar. Va ul sakkiz aslg'a munhasirdur (ME-15); Munsarihi va muzori' va muqtadab va mujtass va sari' va jadid va qarib va xafif va mushokil binosi subo'iyotqadurki, anda ixtilofdur, solimlarini bir doirada jam' qilmaydurlar (ME-23); "Xarm" mafo'ilun "mim"ining isqotidur, to fo'ilun qolg'ay va maf'ulun aning o'rnig'a qo'yulg'ay (ME-15). Aruzga oid ilmiy terminlar ba'zan izofali birikmalardan tashkil topgan bo'ladi. Mushokili musammani makfufi maqbuz (ME-157); Mutaqoribi musammani mahzufi aruzu darb (ME-159); Ammo munsarihi matviy va muzori'i makfuf va muqtadabi matviy va mujtassi maxbunki, musammanul-ajzodurlar, bir doirag'a qo'yup, doirani muxtalifa depdurlar (ME-23); Va sari'i matviy va jadidi maxbun va qaribi makfuf va xafifi maxbun va mushokili makfufki musaddas ul-ajzodurlar (ME-25).

Terminlarning ko'pligi tufayli ilmiy adabiyot uslubi kitobiylik, murakkablik kasb etadi. Ilmiy uslubning asosiy sathlaridan biri bo'lgan "logik izchillik abstrakt otlar va terminlarning ko'p qo'llanilishida, fikrning bir-biriga mantiqiy bog'lanishida, izchil bayon etilishida, takrorning ko'p bo'lishida, takrorning ilmiy nutq uchun norma ekanligida aks etadi".

Agar VIII–IX asrlardagi risolalar va astronomiyaga oid yozma yodgorliklardagi olinma terminlar bilan XV–XVI asrlardagi olinma terminlarni solishtirsak, XV–XVI asrlarda o‘zlashgan terminlar ko‘pchilikni tashkil etganligini ko‘ramiz. Chunki bu davrga kelib turkiy tilga, o‘zbek tiliga arab va fors tillarining ta’siri juda kuchayib ketgan edi. Bu haqida ozarbayjon olimi V. Aslanov shunday yozadi: “Odatda deyarli barcha o‘rta asrlar turkiy yozma manbalarda (jumladan, Sakkokiy, Atoiy, Navoiy, Ahmad Doiy, Shayxug‘lu, Baki, Nasimiy, Kishvari, Fuzuliy va boshqalarning tilida) arab va fors leksik unsurlar poetik asarlar umumiy leksikasining 80–90 % ini tashkil etadi. Arab-fors poetik an’anasiga sodiq qolaroq, o‘rta asr turkiy tili poeziyaga xos bo‘lgan tumtaroqli, qolip iboralar, shoirlar o‘zlarining poetik nutqida asosan o‘rta asrlar fors tilli poeziyaga xos poetik shablonlar qo‘llaganlar”. Terminologik leksikadan tashqari ilmiy uslubga oid ilmiy adabiyotlarda umumilmiy leksika tushunchasi ham mavjud. “Umumilmiy so‘zlar ilmiy tushunchalar anglatishi jihatidan terminologik leksikaga yaqin tursa, biror fan doirasi bilan chegaralanib qolmay, barcha fanlarga oid ilmiy adabiyotlarda keng qo‘llanishi bilan terminologik leksikadan farq qiladi”. “Mezon ul-avzon”da quyidagi umumilmiy so‘zlar uchraydi: uslub (ME-11), jadval (ME-11), ilm (ME-61), usul (ME-58), fan (ME-12), qoida (ME-12), qavoid (ME-12). Sulton-salotinning muborak xotirlari munga multafit, andoqki, kitobning ibtidosida mazkur bo‘ldi, bu ta’lifga bois va tasnifga sabab bo‘ldi va bu sababdin bu ilm zobitasig‘a qalam suruldi (ME-61); Haroyinakim, muloyimtab’liq ozodalar, balki qobili fahmu zehnik shahzodalar bu sharif ilmg‘a ishtig‘ol ko‘rguzadurlar... (ME-61); Ammo, bilgilki, aruz fannikim, nazm avzonining mezonidur, sharif fandur, ney uchunkim nazm ilmining rutbasi bag‘oyat biyik rutbadur (ME-12); Pas, sobit bo‘ldikim, aruz fanni sharif fandur. Va bukim, bu ilmni ney uchun “aruz” dedilar, muxtalif aqvol bor (ME-13).

“Mezon ul-avzon”da ayrim umumiste’mol leksika ba’zan ilmiy uslubda o‘zining umumiste’molligini yo‘qotib, terminologik ma’no kasb etishi mumkin. Masalan, Navoiy asarlarida “turkiy” umumtilga oid so‘z o‘laroq “turkiy xalqlarga xos” degan ma’noni anglatadi. Ammo quyidagi matnda umumiste’mollik xususiyatini yo‘qotib, terminologik ma’no kasb etgan: Va yana surudedurkim, ani “turkiy” debdurlar. (ME-60) Bunday misollarni Navoiyning “Nasoyim ul-muhabbat” asaridan ko‘plab keltirish mumkin. Mazkur asarda tasavvuf terminlarining aksariyati oldin umumiste’mol leksikasiga oid bo‘lgan. Buni quyidagi jadvaldan ko‘rish mumkin.

so‘z	ma’nosi	termin	ma’nosi
but	but, sanam	but	nafs
dargoh	ostona	dargoh	takka
dard	g‘am, alam	dard	ilohiy ishq
jonon	sevgili	jonon	Alloh
junun	jinnilik	junun	haq oshiqklarining jinni bo‘lmasa ham, jinniday ko‘rinishlari
ilm	bilim, ilm	ilm	irfon, ma’rifat, o‘zini bilish

ma'ni	ma'ni	ma'ni	sir, ma'rifat
ma'no	ma'no	ma'no	haqiqat, ma'rifat
ma'rifat	ma'rifat, bilim	ma'rifat	Allohga yetishish yo'lidagi to'rtinchi maqom
shayx	keksa	shayx	murshid, pir

Demak, bunday soʻzlar bir matnda oddiy soʻz boʻlsa, boshqa bir matnda termin hisoblanadi. Ularning terminlik maqomiga ega boʻlishi matn xarakteriga bogʻliqdir. Hozirgi oʻzbek adabiy tilida ham umumisteʼmol soʻzlarining termin boʻlib kelishi koʻp uchraydigan hodisadir. Fitrat oʻtgan asr boshlarida termin yasashda mana shu usuldan foydalanish lozimligini taʼkidlab shunday yozgan edi: “Nasroniy hayot madrasasida quyoshgʻa shams deganlari kabi tuyachilar uyushmasinda ham shams derlar. Arablar yunon bilimlarini oʻz tillarigʻa aylantirgach, shu tuyachilar soʻzlarini olib, “ilmiy istiloh” qildilar. Biz nechun shunday qilmas ekanmiz?”

Xulosa. Yuqorida aytilganlardan quyidagi xulosalarga kelish mumkin.

1. Qadimgi turkiy tilda vazifaviy uslublar, jumladan ilmiy uslub mavjud boʻlgan.
2. Eski oʻzbek adabiy tilida ilmiy uslubda yozilgan ilk ilmiy asar “Funun ul-balogʻa”dir (XV asr).
3. Navoiyning ilmiy uslubda yozilgan “Mezon ul-avzon” asari ilmiy terminlarga boyligi bilan ajralib turadi.
4. Yuksak uslubda yozilgan “Mezon ul-avzon”dagi terminlarning asosiy koʻpchiligi arab tilidan oʻzlashgan.

Foydalanilgan adabiyotlar roʻyxati:

1. Тенишев Э.Р. Функционально-стилистическая характеристика древнеуйгурского литературного языка. Социальная и функциональная дифференциация литературных языков. М.,1977.
2. Закономерности развития литературных языков народов СССР в советскую эпоху. М., 1969.
3. Туманян Э.Г. Язык как система социолингвистических систем. М., 1985.
4. Ҳайитметов А. Адабиётдан туркийда биринчи назарий қўлланма // Ўзбек тили ва адабиёти, 2002, 1-сон.
5. Шайх Аҳмад Тарозий. Фунун ул-балоға // Ўзбек тили ва адабиёти, 2002, 4-сон.
6. Йўлдошбеков Ж. “Фунун ул-балоға” ва ўзбек адабиётшунослиги // Ўзбек тили ва адабиёти, 2001, 5-сон.
7. Убрятова Е.И. О понимании стиля и о стилях в якутском языке // Развитие стилистических систем литературных языков народов СССР, Ашхабад, 1968.
8. Алишер Навоий. Мукамал асарлар тўплами. Йигирма жилдлик. 16-жилд. Мезон ул-авзон. Тошкент: Фан, 2000.
9. Alişir Nevayî. Mizan'ul-evzan. Hazırlayan Prof. Dr. Kemal Eraslan. Ankara, 1993.
10. Захириддин Муҳаммад Бобур. Мухтасар. Нашрга тайёрловчи Саидбек Ҳасан. Тошкент. Фан, 1971.
11. Турсунов У., Ўринбоев Б., Алиев А. Ўзбек адабий тили тарихи. Тошкент, 1995.
12. Мукаррамов М. Ҳозирги ўзбек адабий тилининг илмий стили. Тошкент, 1983.
13. Асланов В. Преемственность на диалектных форм в истории азербайджанского языка // Типы наддиалектных форм языка М., 1981.
14. Абдурауф Фитрат. Танланган асарлар. IV жилд. Тошкент: Маънавият, 2006.